



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7507021>

SHAHRISABZ TUMANI AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Turkmanova Dilnoza Jabborovna

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: turkmanovadilnoza87@gmail.com

Аннотация: Мақолада Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз тумани аҳолисига умумий тавсиф берилган. Асосий эътибор туман аҳолисининг сони, шаҳар ва қишлоқ аҳоли манзилгоҳлари бўйича тақсимланиши, зичлиги, туғилиш, ўлим, миграция масалалари, шунингдек, туман меҳнат ресурсларига қаратилган.

Калит сўзлар: аҳоли, туғилиш, ўлим, миграция, қишлоқ туманлари, меҳнат ресурслари, аҳоли сони.

POPULATION AND LABOR RESOURCES OF SHAHRISABZ DISTRICT

Turkmanova Dilnoza

Annotation: The article gives a general description of Shahrisabz district of Kashkadarya region. The focus is on the district's population, urban and rural distribution, density, births, deaths, migration, as well as the district's labor resources.

Key words: population, births, deaths, migration, rural areas, labor resources, population.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach qishloq joylar – qishloq tumanlarida tub islohotlarni amalga oshirish, qishloq aholisi turmush darajasini shaharlarga yaqinlashtirish, qishloqlarni sanoatlashtirish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, qishloq joylarini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o‘zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal ob‘ektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi qishloq aholisi turmush darajasini tubdan oshirish va shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» yo‘nalishi, 2016 yil 4 maydagi «Qishloq joylardagi aholiga servis xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 139-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishning tub maqsadi ham aynan qishloq tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq tumanlarini hududiy tahlil doirasida o'rganishda ularning geografik o'rni ham yaxshi samara beradi. [2]. Chunki, bu turdagi ma'muriy birliklar respublikaning qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda bevosita tutash-chegara hududlari, bog'lab turuvchi "yo'lagi" sanaladi. Bu jihatdan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumani ham respublika qishloq ma'muriy tumanlari ichida o'ziga xos o'ringa ega.

Tuman ma'muriy birlik sifatida 1926 yil 29 sentabrda tashkil etilgan. Geografik joylashuviga ko'ra, shimoldan Kitob tumani, sharqdan Tojikiston Respublikasi (So'g'd viloyati Panjikent tumani Rog'ich va Mag'yon qishloqlari bilan 18,5 km masofada), Surxondaryo viloyati, janubdan viloyatning Yakkabog' va Qamashi tumanlari, g'arbdan esa Chiroqchi tumani bilan chegaradosh. Uning maydoni 1,62 ming km² tashkil etib, viloyat maydonining 5,7 % qismini egallaydi. Viloyatda maydoni kattaligi bo'yicha 13 ta tuman ichida 10 o'rinda turadi (bu jihatdan Kasbi, Yakkabog', Qarshi tumanlaridan oldinda). Ma'muriy jihatdan tarkibida 13 ta shaharcha, 101 ta qishloq aholi manzilgohlari bor.

Tumanning tabiiy sharoiti xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan qulay hisoblash mumkin. Tuman hududi Qashqadaryo viloyatining shimoliy sharqiy qismida, Hisor tog'larining etaklarida joylashgan. Tumanning g'arbi ochiq voha - Qarshi cho'liga tutashib ketadigan tekislikdan iborat. Tog'lardan boshlanadigan Oqsuv, Qashqadaryo, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Tamshush, Miroqi daryolari asosiy irrigatsiya manbalari hisoblanadi. Foydali qazilmalardan Miroqi tog' etaklaridan qora marmar qazib olinadi. Iqlimi kontinental, yillik o'rtacha harorat 14,7°, yanvarning o'rtacha harorati esa 0,8°, eng past harorat - 26° teng. Yozda iyulning o'rtacha harorati 28°, eng yuqori harorat 43° tashkil etadi. Yiliga o'rtacha 545 mm yog'in tushadi. Tumanda vegetatsiya davri -219 kunga teng.

2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra doimiy aholisi 227,6 ming kishini tashkil qilib, viloyat jami aholisining 6,7 foizi istiqomat qiladi (viloyat tumanlari orasida aholiyligi bo'yicha o'rtacha o'ringa ega). Shu bilan birga, shahar aholisi soni 54,8 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 24,1 %), qishloq aholisi soni 172,8 ming kishini (75,9 %) tashkil etdi. Aholi zichligi 1 kv. km. ga 140,5 kishiga to'g'ri keladi. Mavjud 13 ta shaharchalar orasida aholi soni bo'yicha Miraki va Qutchi shaharchalari ajralib turadi. Ularning har biriga mos ravishda 9,8 va 8,6 mingtadan kishi to'g'ri keladi. Xo'jajurosan shaharchasida 4,2 ming aholi istiqomat qiladi, qolganlarida aholi soni 2,8-3,9 mingtadan mos keladi.

2022 yil 1 yanvar holatiga tumandagi mehnatga layoqatli yoshdagilar jami aholining 56,6 foizini tashkil qilgan, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 34,3 %, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar esa 9,1 % bo'lgan.

Tuman aholi sonining milliy tarkibida o'zbek millati ulushi 93,8 % tashkil etadi, keyingi o'rinda tojik millati bo'lib 5,2 foizga teng. Shuningdek, rus va boshqa millat vakillarining migratsion ko'chishi va ulardagi tug'ilish ko'rsatkichlari pastligi kabi omillar ta'sirida ushbu millat vakillari ulushi kamayib bormoqda.

Statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, aholi o'rtacha yoshi 2021 yil boshida 27,1 yoshni tashkil etgan, hamda bunda erkaklar o'rtacha yoshi 26,6 ayollar erkaklarga nisbatan uzoqroq umr ko'rayotganligi sababli ularning o'rtacha yoshi 27,6 yoshni tashkil etgan va erkaklarga nisbatan 1,0 yilga ko'proq yashamoqda.

Aholi sonini o'sishida uning tabiiy harakatini roli katta. 2021 yilda Qashqadaryo viloyatida 97,0 mingta tug'ilish qayd etilgan bo'lib, uning 5670 tasi Shahrisabz tumaniga to'g'ri keladi. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti viloyatda 28,8 promilleni, tumanda esa 25,1 promilleni tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, Qarshi va Shahrisabz shaharlarini hisobga olmaganda tuman tug'ilish koeffitsienti bo'yicha viloyatda eng past ko'rsatkichga ega (bu jihatdan Chiroqchi tumani eng yuqori bo'lib, 35,8 %). O'rganilayotgan yilda viloyatda 15,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil etgan. Tumanlar o'rtasida o'lim koeffitsienti bo'yicha katta farqlar kuzatilmaydi.

Shuningdek, ko'chib keluvchi yoki ko'chib ketuvchi aholi, aniqrog'i-migratsiya hududning nafaqat demografik, balki ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi migratsiyasi natijasida uning mavjud va doimiy miqdorida o'zgarishlar sodir bo'ladi. 2021 yil davomida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 842 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 1760 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i - 918 kishini tashkil etgan. Viloyat ma'muriy birliklari ichida migratsiyaning ijobiy ko'rsatkichi faqat Qarshi tumanida kuzatilgan (1130 kishi).

Tumanda mehnat resurslari soni 122,2 ming kishini tashkil qilgan, iqtisodiy faol aholi soni esa 88,2 ming kishini yoki mehnat resurslari sonining 72,2 % tashkil etgan. Band bo'lgan aholi soni esa 78,6 ming kishini tashkil qilib, iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan 89,1 % tashkil etgan bo'lsa, ishsizlar soni 9,6 ming kishini tashkil qildi va iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan ishsizlik darajasi 10,9 % teng bo'lgan. Tuman bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlarning ma'lumoti bo'yicha bo'linishi quyidagicha bo'lib, oliy ma'lumotli xodimlar jami xodimlarning 41,0 % ni, o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar jami xodimlarning 47,4 % ni, o'rta va to'liqsiz o'rta maxsus ma'lumotga ega xodimlar esa jami xodimlar sonining 11,6 % ni tashkil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojjeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 276 b.
2. Qurbonov Sh. O'zbekiston qishloq joylari geografiyasi. – T.: Kaleon Press, 2021. - 176 b.
3. Shahrisabz tumanining 2018-2020- yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida AXBOROTNOMA.

4. www.stat.uz

5. www.qashstat.uz